"T A S D I Q L A Y M A N"
"O'zmilliybank" AJ
Yangiobod BXM
boshqaruvchisi v.b.
Sh.N.Utkurov

"O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Yangiobod BXM va G'alaba BXOda tasdiqlangan yillik rejaga asosan "Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida bank xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakillantirish bo'yicha huquqiy-targ'ibod va profilaktik davra suhbatining

BAYONI № 6

"12" 03 2026 yil **Toshkent shahri**

Majlis Raisi: Sh.N.Utkurov – "O'zmilliybank" AJ Toshkent shahar Bosh Boshqarmasi Yangiobod BXM boshqaruvchisi v.b.

Qatnashdi : Yashnobod tumani IIOFM Boshqarmasi Axborot texnalogiyalari sohasidagi jinoyatlarni oldini olish bo`limi ispektori kata leytenant S.E.Axrolov, Xavfsizlik, rejim bo`yicha bosh mutaxassis B.Xashimov, Yangiobod BXM boshqaruvchi o'rinbosarlari, bosh buxgalteri, bo'lim boshliqlari, sho'ba mudirlari, mutaxassis xodimlar va G'alaba BXO xodimlari.

K U N T A R T I B I:

1. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni 03.01.2017yil O'RQ-419 Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida, qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 13 dekabrda ma'qullangan Qonunning mazmun-mohiyati haqida.**
2. **Kiberhavfsizlik- kompyuter tizimlari, tarmoqlari va dasturiy ta'minotni ruxsatsiz kirish, hujum, ma'lumot o`g`irlanishi va buzilishidan himoya qilish choralari.**
3. **"O'zmilliybank" AJ Yangiobod filialida korrupsiyani oldini olish, xodimlarda korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish va bu borada ularning malakasini oshirish.**

O'zmilliybank AJ Toshkent shaxar Bosh Boshqarmasi Yangiobod BXM boshqaruvchisi v.b. Sh.N.Utkurov majlisni kirish so'zi bilan ochib, majlis qatnashchilarini kun tartibiga qo'yilgan barcha masalalar bilan tanishtirib, so'zni Yashnobod tumani IIOFMB Axborot texnalogiyalari sohasidagi jinoyatlarni oldini olish bo`limi inspektori katta leytenant S.E.Axrolovga berdi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratilgan holda **2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"**gi Qonuni qabul qilindi hamda shundan so`ng bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo`yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Qonunning 3-moddasiga ko`ra **Korrupsiya** - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir;

Qonunning 5-moddasida esa korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo`nalishlari ko`rsatib o`tilgan bo`lib, ular aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o`z vaqtida aniqlash, ularga chek qo`yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va hart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir.

Shu muhim vazifalar haqida, hamda ushbu qonunning ijrosini to`liq va sifatli bajarish yuzasidan nima ishlar qilish kerakligini tushuntirib o`tdi.

Yuqorida keltirilgan Qonunda yana quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat hisoblanishini sanab o'tdi.

Shu fursatdan foydalanib S.E.Axrolov, yig`ilish qatnashchilariga hozirgi raqamli davrda kiberxavfsizlik jamiyat, davlat va shaxs uchun eng dolzarb masalalardan biriga aylanganini. Internet va axborot texnalogiyalari imkoniyatlari ortib brogan sari, ulardan noqonuniy maqsadlarda foydalanish holatlari ham ko`payayotganini aytdi. Shuning uchun har bir tashkilot va shaxs kiberxavfsizlik talablariga amal qilishlari shartligini tushuntirdi.

Kiberxavfsizlik tushunchasi - Kiberhavfsizlik- kompyuter tizimlari, tarmoqlari va dasturiy ta'minotni ruxsatsiz kirish, hujum, ma'lumot o`g`irlanishi va buzilishidan himoya qilish choralari majmuasidir. Uning asosiy maqsadi – mahfiylik, yaxlitlik va mavjudlik (CIA: Confidentiality, Integrity, Availabity) prinsiplarini ta'minlash.

Asosiy kiberxavflar- Fishing – soxta veb-caytlar yoki electron xatarlar orqali shaxsiy ma'lumotlarni o`g`irlash.

Zararli dasturlar (virus,troyan,shpion dasturlar) – kompyuter tizimini izdan chiqarish yoki ma'lumotni o`g`rlash.

DdoS hujumlar- cayt yoki server faoliyatini izdan chiqarish. **Insayder xatarlar-** tashkilot ichidagi xodimlar tomonidan sodir etiladigan xavflar, **parollarni buzish** va noqonuniy kirish.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash choralari- Kuchli parollardan foydalanish (kata-kichik harf, raqam va belgilar aralash).**Antivirus va xavfsizlik dasturlarni yangilab boorish. Fishingdan himoya-** shubhali xat va havolalarni ochmaslik.**Rezerv nusha (backup)** yaratish va doimiy yangilash. **VPN va shifrlash** texnologiyalaridan foydalanish. **Kiberhuquqiy bilimlar-** qonunchilik va axborot xavfsizligi talablariga amal qilish.

Kiberxavfsizlikning ahamiyati- Davlat xavfsizligini ta'minlash. Korxona va tashkilotlarda moliyaviy zararlarni oldini olish.Shaxsiy malumotlar va shaxsiy hayot dahilsizligini himoya qilish. Jamiyatda ishonch va barqarorlikni saqlash.

Kiberxavfsizlik- bu faqatgina IT mutaxassialari emas, balki har bir shaxs uchun zarur bilim va ko`nikmadur. Axborat texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish- barchamizning umumiy mas'uliyatimizdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "O'zmilliybank" AJ Yangiobod bank xizmatlari markazi yig'ilishi,

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi O'RQ-419 Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, qonunning talablariga so'zsiz va og'ishmay rioya etilishi ta'minlansin.
2. Barcha bo'lim boshliqlari va sho'ba mudirlari har oyda kamida bir marotaba mazkur Qonuning mazmun mohiyati yuzasidan barcha xodimlarni jalb qilingan holda texnik o'quv mashg'ulotlar tashkil etilsin.
3. Mazkur Qonunga asosan "O'zmilliybank" AJ Yangiobod bank xizmatlari markazi barcha xodimlari bevosita amal qilgan holda so'zsiz ijrosi ta'minlansin.

Xavfsizlik, rejim va axborotni himoyalash boshqarmasi bosh mutaxassisi — B.G.Xashimov

Yig'ilish kotibi:

Biznesni qo`llab quvvatlash guruhi kotibasi — N.M.Yuldasheva

2026 yil 12 martdagi yig`ilishda Qatnashgan xodimlar ro`yhati:

1	Тоирходжаев Ф.К	
2	Нигматов А.О.	
3	Абдурахимов Н.А.	
4	Юзиев Ж.Э.	
5	Ходжиев Б.Н.	
6	Турсунбоев А.Ч	
7	Ходжиев Б.М.	
8	Ташпулатов М.Р	
9	Пан М.Р.	
10	Ким М.В	
11	Нарзуев Ш.Б.	
12	Саматов Б	
13	Абдуллаева Н.	
14	Нуриева М.А	
15	Касимова Н.Х	
16	Нуриддинов Жахонгир Камолиддин ўғли	
17.	Рахимов Д.Д	
18	Турсибова Шахноза Зувайдуллаевна	
19	Шермухамедова С.А.	
20	Рахматуллаева Шароскан	
21	Шукурджанова Дилфуза	
22	Расулова В.О	
23	Жолдошев А.А.	
24	Исроилова Х.И.	
25	Усманов А.И	
26	Жолдашева Н	
27	Еламанбаева Г	
28	Алимжанова А	
29	Хусниддинова М	
30	Азимов У	
31	Алиева Г	
32	Исламов И	

Biz korrupsiyaya qarşıyıq!
STOP